



UDK:37.02

*Kibriyoxon MARAYIMOVA,*

*PhD, dotsent, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston*

*E-mail: marayimova.kibriyoxon@gmail.com, ORCID: 0009-0002-8305-8285*

*O‘zDJTU professori D.Sarimsakova taqrizi asosida*

### BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOY-MADANIY KOMPETENTLIKNI MUZEY PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotsatsiya

Ushbu maqolada kompetensiya tushunchasi, kompetentlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishi natijalari tahlil qilingan. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik mazmuni, ijtimoiy kompetentlik bo‘yicha adabiyotlar tahlili uni bo‘lajak o‘qituvchilarda rivojlantirish zaruriyati asoslangan. Pedagogika universitetlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha horijiy tajribalar yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur kompetentlikni rivojlantirish usullari va yondashuvlari tahlil qilinadi, uni o‘qitishda yurtimiz kontekstida mavjud bo‘lgan muammolar bayon qilinadi va ularni hal qilish usullari taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Kompetensiya, kompetentlik, kompetentli yondashuv, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, pedagogik faoliyat, komponent.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ СРЕДСТВАМИ МУЗЕЙНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация

В статье анализируется понятие компетентности и результаты исследований компетентности. Содержание социокультурной компетентности, анализ литературы по социальной компетентности, исходят из необходимости ее развития у будущих учителей. Освещен зарубежный опыт развития социокультурной компетентности будущих учителей в педагогических вузах. Также анализируются методы и подходы к формированию данной компетенции, описываются проблемы, существующие в условиях нашей страны при ее преподавании, и предлагаются методы их решения.

**Ключевые слова:** Компетентность, компетентность, компетентный подход, социокультурная компетентность, педагогическая деятельность, компонент.

### PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPING SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS THROUGH MUSEUM PEDAGOGY

Annotation

This article analyzes the concept of competence, the results of research on competence. The content of socio-cultural competence, the analysis of literature on social competence are based on the need to develop it in future teachers. Foreign experiences in developing socio-cultural competence of future teachers in pedagogical universities are highlighted. Also, methods and approaches to developing this competence are analyzed, problems in teaching it in the context of our country are described and methods for solving them are proposed.

**Key words:** Competence, competence, competent approach, socio-cultural competence, pedagogical activity, component.

**Kirish.** O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida demokratik taraqqiyotni ta‘minlashga qaratilgan Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari yo‘l jamiyatda shaxslararo munosabatlarni takomillashtirish zarurati bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur o‘zgarishlarning demokratik mohiyati jamiyat ongi, kishilarning o‘z – o‘zini anglashi va shu asosda kuchli jamiyatdan kuchli davlat sari yuksalishda o‘z aksini topadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 70 – maqsadi “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” deb nomlanib, unda “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash”, ta’kidlanadi[1]. Bu esa demokratik jamiyat tabalaridan kelib chiqqan holda yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib yashashlari zarurligini anglatadi. Shuningdek, oliy ta’limda bo‘lajak kadrlarni ijtimoiy-madaniy kompetentligini

rivojlantirishning samarador metodologiyasi sifatida muzei pedagogikasining imkoniyatlaridan foydalanish, uning pedagogik shart-sharoitlarini oshirishga doir vazifalarni hal etish dolzarblilik kasb etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi xatti-harakatlarning xususiyatlari, shaxs faoliyatining dominant shakli, hayot faoliyati to‘g‘risidagi hozirgi bilim darajasi bilan bog‘lab talqin qilinadi. Shu bilan birga, kompetentlikning tabiatini psixologik tushunish asosan belgilangan shaxsiy sifatiga – fazilatiga qaratilgan. S.N.Krasnokutskayaning ta’kidlashicha, ijtimoiy kompetensiya shaxs ijtimoiylashuvning ajralmas qismi bo‘lib, bu ijtimoiy rollarning o‘zgarishiga dosh bera oladigan shaxsning boshqalar bilan hamkorlik qilish, aloqalar o‘rnatish, oson moslashuv, o‘zgarishga tayyorlik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z harakatlarining oqibatlarini uchun ijtimoiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini ko‘zda tutadi[2].

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tamoyillarini quyidagicha belgilash mumkin:

birinchidan, ijtimoiy kompetensiya – bu ijtimoiy, psixologik va pedagogik fanlar majmuidida shakllantiriluvchi murakkab ijtimoiy pedagogik fenomen. Bunda bo'lajak pedagog shaxsining ijtimoiy kompetensiyalari uning muvaffaqiyatli faoliyati asosidir. Chunki, u ijtimoiy xatti – harakatlarning uyatlaricha tanlovini va shaxsga xos bo'lgan ijtimoiy rollarni bajarish samaradorligini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatning ijtimoiy mohiyatini hisobga olgan holda, ijtimoiy kompetentlik o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining asosidir:

ikkinchidan, o'qituvchida ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishning maqsadi – uning atrofimizdagi olamga: Vatanga, odamlarga, tirik va jonsiz tabiatga, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga hayotiy pozitsiyasini shakllantirish – insoniy munosabatlarni rivojlantirishdir. Ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishning mohiyatida ijtimoiy siyosiy, ma'naviy ma'rifiy, iqtisodiy, estetik qadriyatlar va o'z-o'zini rivojlantirish mavjud bo'ladi;

uchinchidan, pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun talabalarining ijtimoiy–madaniy muhiti, oilasi, jamoaviy munosabatlarini o'rganish zarur;

to'rtinchidan, ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishda ushbu jarayonning ochiq ijtimoiy–pedagogik tizimga aylanishi, professor–o'qituvchilarning yuqori kasbiy darajasi va oliy ta'lim muassasasidagi ijtimoiy ma'naviy muhit katta ahamiyat kasb etadi;

beshinchidan, bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishda talabalarining hayotiy qadriyatlarini tavsiflash, ochiqlik, muloyimlik, bag'rikenglik, o'zaro mehr oqibatlilik, fuqarolik fazilatlar, axloqiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar, milliy g'oya, kasb tanlash motivlari, o'z o'zini tarbiyalash, ijtimoiy moslashuv va sotsializatsiya darajasi, ijtimoiy harakatchanlik va faollik kabi omillar e'tiborga olinishi zarur[2].

Raqobatbardosh, zamonaviy bilimli va yuksak ma'naviyatli mutaxassislar uchun zarur hisoblangan kompetensiyalarga bugungi kunda ijtimoiy, kommunikativ, ijtimoiy–informatsion, kognitiv va maxsus kompetensiyalar kiradi. Bunda ijtimoiy kompetensiyalarning uyatakchi o'rni e'tirof etiladi. Ijtimoiy kompetensiya bu shaxsni yangidan paydo bo'lgan umumiy lashtirilgan ijtimoiy o'zaro bog'langan sifatleri bo'lib, ijtimoiy rollarini muvaffaqiyatli bajarishga, sotsium va ushbu jamiyat sharoitida kerak effektiv faoliyat uchun zarur jihatlardir. Shunga muvofiq, bo'lajak pedagogni ijtimoiy kompetensiyalari deganda kasbiy pedagogik faoliyat davomida kerakli, unumli sifatlar ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy psixologik bilimlar, mahorat, ko'nikma, faoliyat usuli tushuniladi. Kompetentlik yondoshuv esa, pedagogik ta'lim dasturlari mazmunini belgilashda metodologik komponent sifatida joriy qilinishi zarurligini ko'rsatadi[3-4].

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlariga integratsiyalashgan holda ulardagi ijtimoiy faollik ko'nikmalarini baholash mezonlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ta'limni modernizatsiyalash sharoitida professional kadrlarni tayyorlash, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning kasbiy motivatsiyasini, kompetentligini rivojlantirish muhim sanaladi.

Jahon amaliyotida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi natijaviyligiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga qaratilmoqda.

Bo'lajak pedagoglar kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablarida, ularning ma'naviy – ma'rifiy faoliyatida bir qator vazifalar belgilab o'tilgan. Jumladan,

- ma'naviy – ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

- o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish usul va texnologiyalarini bilishi;

- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

- mahallalarda ma'naviy – axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

- milliy urf – odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr – muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak deb aytilgan bo'lib, aynan bu o'qituvchining ijtimoiy kompetensiyalari sanaladi.

Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish muammosining pedagogik muammo sifatida e'tibor berilishi oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonida kompetentli yondashuvni takomillashtiradi. Bu esa ijtimoiy kompetensiya mohiyatini "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalari orqali oydinlashtirishni taqozo qiladi. 1996 yilda Yevropa Kengashi tomonidan Bernda o'tkazilgan "Evropa uchun tayanch kompetensiyalar" simpoziumida zamonaviy bitiruvchilarning quyidagi 5 ta muhim kompetensiyalari aniqlandi. Bular:

siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar (o'ziga javobgarlikni olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni zo'ravonliksiz hal qila olish);

ko'p millatli jamiyatda yashash kompetensiyalari (tafovutlarni ehtirossiz qabul qilish, o'zgalarni hurmat qilish, boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro munosabatga kirishish);

bir va undan ortiq tilda og'zaki va yozma muloqot qila olish;

axborotlashgan jamiyatda yashash kompetensiyalari (yangi texnologiyalarni bilish, ularni qo'llay olish, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma'lumot, reklamalarga tanqidiy munosabatda bo'lish);

butun hayoti davomida Uzluksiz ta'limni kasbiy tayyorgarlik kontekstida mustaqil o'zini o'zi o'qitish qobiliyati.

**Natijalar va muhokama.** Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlik umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu ijtimoiy-madaniy kompetentlik hisoblanadi. Zero zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'quvchiga bilim beradi, ma'lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o'rtasida vositachi rolini ham bajaradi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy vazifalari sirasiga moslashish, ijtimoiy yo'nalganlik, shaxsiy va umumijtimoiy tajribalarning uyg'unlashuvi kabi jihatlarni kiritish mumkin. Shaxs ijtimoiy-madaniy kompetentligining qay darajada ekanligi o'zaro shaxslararo munosabatlarni olib borish, faoliyatni yo'lga qo'yish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, psixologlar o'tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaxsning yangi ijtimoiy, globallashuv shart sharoitlariga moslashuvi jarayonida insonlardagi ijtimoiy kompetentlik darajasining shakllanganligi alohida o'rin tutadi. Ekologik, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy o'zgarishlar nafaqat ijtimoiy tafakkur rivojini belgilaydi, balki insonlarning o'zini o'zi anglashi, hayotiy qadriyatleri, shaxsiy muammolariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning mazmunini aniqlash maqsadida o'tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili uning quyidagi o'ziga xos jihatlarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi: birinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetentlik o'zida jamiyat va madaniyat talablarini ifoda etishi mumkin. Bu esa, shaxsning ijtimoiy-axloqiy meyorlar mazmuni haqidagi bilimlarga,

madaniy talablar asosida faoliyat shakllarini tashkillashtirish ko'nikmasiga egaligi hamda uning qadriyatli yo'nalganligi bilan izohlanadi. ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetentlik insonning ijtimoiy o'zaro sheriklik, hamkorlik subyekti sifatidagi yaratuvchilik xususiyatlarini ham aks ettiradi[6].

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni bo'lajak o'qituvchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar bo'yicha tushunchalar berib borish asosida ularda kasbiy kompetentlikni muntazam rivojlantirib borishning korporativ asoslarini inobatga olishni taqozo etadi[7].

Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlik turli madaniyat vakillari bilan o'zaro munosabatlar, axloqiy meyorlarni tushunish va ularga rioya qilish bilan bog'liq ko'nikmalar, bilimlar va qobiliyatlar majmuidir. Yurtimizdagi ta'lim tizimi talabalarning madaniyatlararo tajribasini boyitish, bag'rikenglik va boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga intiladi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik ta'lim jarayoni sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, O'zbekiston madaniy merosining xilma-xilligini chuqur anglash va qabul qilishni ta'minlab, ijtimoiy tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun zarur bo'lgan madaniyatlararo tushuncha va bag'rikenglikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik to'rtta asosiy komponentdan tashkil topgan:

1) ijtimoiy-madaniy bilim (ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy an'analar, milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini bilish);

2) aloqa tajribasi (ijtimoiy-madaniyat uslubini tanlash, xorijiy madaniyat hodisalarini to'g'ri talqin qilish);

3) madaniyatga (shu jumladan, muloqot paytida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish va hal qilish qobiliyati) hissiy jihatdan munosabat;

4) axloq qoidalarini qo'llash usullarini bilishb ijtimoiy etiketdan to'g'ri foydalanish.

Fikrimizcha, ijtimoiy madaniyat, ijtimoiy-madaniy kompetentlik ma'naviy-axloqiy fazilatlarining poydevori hisoblanib, ijtimoiy madaniyat ko'nikmalari yoshlikdan tarkib toptirilsagina, bu poydevor barqaror bo'ladi. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omilga aylanadi. Zero, ma'naviy axloqiy fazilatlar tarkibida muomala munosabat madaniyati alohida o'rin tutadi. Ta'lim muassasasida o'quvchi-yoshlarga oila, mahalla muhitidan tashqarida dastlabki muomala, munosabat muammolariga duch keladi. Aynan ta'lim muassasasida muomala madaniyatini izchil va uzviylikda, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslangan xolda shakllantirish amalga oshirilishi zarur. YA'ni oila, mahalla tarbiyaviy ta'siridan farqli professional ta'sir ko'rsatiladi. Shuningdek, tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishiladi. YA'ni, oilada, mahallada milliy qadriyatlar, mahalliy urf-odatlar tarbiyasi ustuvor bo'lsa, ta'lim muassasasida dastlabki umuminsoniy qadriyatlar va muomala madaniyati bo'yicha tushuncha, ko'nikmalarni shakllantirish yo'nalishida ham ish olib boriladi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy g'oyalarining tahlili asosida mumkin, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligi ijtimoiy-madaniy bilim, o'rganilayotgan til, ma'naviy qadriyatlar va madaniy meros, aloqa tajribasi, tilni qo'llash usullarini bilish jarayonida shakllanadi va namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Kompetentlikga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy ta'lim nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, mutaxassisning nazariy bilimlari va uni amaliy qo'llash o'rtasidagi uzilishni yengishga intilishdir. Shuning uchun zamonaviy o'quv jarayoni amaliyotda qo'llanilishi qiyin bo'lgan bilimlarni talabalarga berishdan iborat emas, aksincha shu bilimlarni dolzarb kasbiy muammolarni hal qilish uchun safarbar etish, shuningdek o'quv jarayonida bu kabi muammolarni talabalarning o'zlari mustaqil ravishda hal qilishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo'lishi kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida," PF-60-son Farmon, 28-yanvar 2022.
2. Toshtemirova S. A., "The need to improve social competences in future teachers," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, vol. 2022, no. 1, Art. 4, 2022.
3. Raven J., *Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release*. UK: Oxford Psychologists Press, 1984, p. 220.
4. Kolova S. M., "Formirovanie sotsiokulturnoy kompetentnosti budushchikh spetsialistov," Ph.D. dissertation, Chelyabinsk, Russia, 2002, p. 190.
5. Elizarova G. V., "O prirode sotsiokulturnoy kompetentsii," in *Slovo, predlozhenie i tekst kak interpretiruyushchie sistemy*, *Studia Linguistica* 8. St. Petersburg: Trigon, 1998, pp. 25–31.
6. Berdieva Kh. B., "Razvitie sotsiokulturnoy kompetentnosti u budushchikh uchiteley nachalnykh klassov," *Pedagogicheskoe obrazovanie i nauka*, no. 1, pp. 128–131, 2020.
7. Berdieva Kh. B. and N. U. Berdieva, "Problemy razvitiya sotsiokulturnoy kompetentnosti u shkolnikov nachalnykh klassov," *Evraziyskoe Nauchnoe Ob'edinenie*, no. 12-5, pp. 408–410, 2019.